



WEB OF SCIENTIST: INTERNATIONAL

SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL

ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 3, Mar., 2023

WAYS TO ORGANIZE PLAY ACTIVITIES OF PRESCHOOL EDUCATIONAL EDUCATORS ON THE BASIS OF A SYSTEMATIC APPROACH

Jumayeva Malika Aliyevna

Termiz Davlat Pedagogika Instituti

Maktabgacha ta'lif yo'nalishi o'qituvchisi

Abstract:

The article provides information on the development of play activities in preschool children. The game not only improves cognitive processes, but also has a positive effect on the child's behavior.

Keywords: Game, technology, development, activity, action, personality, psyche, need, activity, body, skill, competence, knowledge, pedagogue, educator, imagination, experience, quality, growth, sub 'ect, object, behavior, attitude, being.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARI O'YIN FAOLIYATINI TIZIMLI YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH YO'LLARI

Jumayeva Malika Aliyevna

Termiz Davlat Pedagogika Instituti

Maktabgacha ta'lif yo'nalishi o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqlada maktabgacha yoshdag'i bolalarda o'yin faoliyatini rivojlantirish haqida ma'lumot berilgan. O'yin faqat bilish jarayonlarini takomillashtirib qolmay, balki bolaning xulq-atvoriga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: O'yin, texnologiya, rivojlanish, faoliyat, harakat, shaxs, ruhiyat, ehtiyoj, faollik, jism, ko'nikma, malaka, bilim, padagog, tarbiyachi, tasavvur, tajriba, sifat, o'sish, sub'ekt, ob'ekt, xulq, munosabat, mavjudot.



Website:

<https://wos.academiascience.org>

568



СПОСОБЫ ОРГАНИЗАЦИИ ИГРОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВЕДОМЫХ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА

Аннотация:

В статье представлена информация о развитии игровой деятельности дошкольников. Игра не только улучшает познавательные процессы, но и положительно влияет на поведение ребенка.

Ключевые слова: игра, технология, развитие, деятельность, действие, личность, психика, потребность, деятельность, тело, умение, компетенция, знание, педагог, воспитатель, воображение, опыт, качество, рост, субъект, объект, поведение, отношение., существование.

KIRISH

O‘yin bola uchun haqiqiy hayotdir. Agar tarbiyachi bolalar o‘yiini oqilona tashkil eta olsagina u ijobiy natijalarga erishishi mumkin. A.P. Usova shunday degan edi: «Bolalar hayoti va faoliyatini to‘g`ri tashkil etish — ulami to‘g`ri tarbiyalash demakdir. Bolalarni tarbiyalashning o‘yin shakli shuning uchun ham samarali natija beradiki, o‘yinda bola yashashni o‘rganmaydi, balki o‘z hayoti bilan yashaydi». O‘yin tanlay bilish ham muhim ahamiyatga ega. O‘yin bilan ta’lim o‘rtasidagi bog`liqlik bola ulg`aygan sari o‘zgarib boradi. Kichik guruhda o‘yin ta’lim berishning asosiy shakli hisoblansa, katta guruhga borganda esa mashg`ulotlarda ta’limning roli ortadi. Tayyorlov guruhiga borganda bolalarning o‘zlarida mактабдаги o‘qishga ishtiyоq uyg`onib qoladi. Ammo bolalar uchun o‘yining qadri yo‘qolmaydi, balki mazmuni o‘zgaradi. Endi bolalarni ko‘proq fikriy faollikni talab etuvchi o‘yinlar, sport tarzidagi (musobaqa jihatlari bor) o‘yinlar qiziqtira boshlaydi. O‘yin bola shaxsini tarbiyalashning asosiy vositasidir.

O‘yin orqali bolalar kattalarning mehnat tajribasini, bilim, malaka va ko‘nikmalari harakat usullarini, axloq normalari va qoidalarini, mulohaza va muhokamalarini egallab oladilar. O‘yinda bolaning o‘z tengdoshlari va kattalar bilan bo‘ladigan munosabat usullari shakllanadi, his va didlari tarbiyalanadi. Bolalarning o‘yinda birlashishlari bir necha bosqichga bo‘linadi. Birinchi bosqich bolalarning «yonma-yon» o‘yining shakllanib borishidir. Bu ilk yoshli va kichik guruh bolalariga xosdir. Bunday o‘yinda bolalar o‘rtog`ining o‘yiniga qiziqish bilan qaraydilar, birga o‘ynab, «yonma-yon» o‘tirganlaridan xursand bo‘ladilar. Bu yoshdagи bolalarning o‘yini kattalar rahbarligida ularning xulqiga ta’sir etish orqali tashkil etiladi. Ikkinchi





bosqichda bolalar o'yin orqali mexanik ravishda birlasha boshlaydilar. Bunday birlashishlar qisqa muddatli bo'ldi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning etakchi faoliyati o'yindir. Shuning uchun o'yin faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, ma'naviy, axloqiy rivojlantirish usuli hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar turmush tajribasiga ega bo'limgaganligi tufayli kattalarning turmush tarziga taqlid qilish va kuzatish orqali o'zlashtirib oladilar hamda o'zlarining taassurotlarini o'z o'yinlarida aks ettiradilar. Jumladan, kichik maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy o'yin faoliyati rolli o'yinlarni tashkil etadi. Rolli o'yinlar negizida ya'ni o'yin jarayonida ularning xarakteri, bilish jarayonlari, tasavvur olami bilan birgalikda ijodkorlik qobiliyatlari ham rivojlanadi. Ko'plab olimlar va psixologlar o'yin orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxs sifatida shakllanishi borasida ko'plab nazariyalarni ishlab chiqganlar. O'yin harakatlarining qisqarishi va umumlashuvi ko'rinishidagi mantiqan izchil, yig'iq shaklga o'tishning asosini tashkil qiladi. Psixolog J.Piaje o'yinda jismlarga yangi nom berish omiliga jiddiy e'tibor bilan qarab, bu ish ramziy ma'noli tafakkur shakllanishining tayanchi, degan xulosaga keladi. Lekin bu xulosa vaziyatni aks ettirishning birdan-bir to'g'ri yo'li ekanligini bildirmaydi. Shuning uchun narsaning nomini o'zgartirish bilan bolada tarakkur va aql-zakovat o'sishini kutish ham mantiqqa mutlaqo ziddir. Aslida nar salarni qayta nomlash emas, balki o'yin harakatlarining xususiyatini o'zgartirish bolaning aqliy o'sishiga sezilarli ta'sir o'tkaza oladi" deya o'z fikrlarida yaqqol aks ettirilgan. O'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ldi.

Bola hayotining bir yoshidan boshlab unga o'rab turgan tevarak-atrofni bilishga ehtiyoj xosdir. Bolalar o'yinlari o'zining barcha xilma-xilligi bilan unga yangi narsani bilish, o'yin mazmunida aks etgan jihatga o'z munosabatini bildirish imkonini beradi. Bola – o'sib va rivojlanib boruvchi mavjudotdir. Harakat – uning to'la-to'kis o'sib-ulg'ayishining shartlaridan biri. Faol harakatlarga ehtiyoj o'yinning barcha turlari, ayniqsa, harakatli va o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan didaktik o'yinlar orqali to'liq qoniqtiriladi. Shuningdek, o'yinlar bolaning muloqotga kirishishga bo'lgan ehtiyojini qondirishda katta imkoniyatga ega. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ta'lim-tarbiya ishida, bolalarni aqliy, axloqiy, mehnat va estetik jihatdan tarbiyalashda katta o'rin tutadi. O'yin bolalardagi bilim va tasavvurlarni mustahkamlaydi. Bunda pedagogni to'g'ri raxbarligida uning tushunchalari kengayadi. Tarbiyachi o'yin orqali bolalarda ona-vatanga, o'z xalqiga, boshqa millat vakillariga ijobiy munosabatni shakllantiradi, mustahkamlaydi. O'yin orqali tarbiyachi bolalarda jasurlik, rostgo'ylik, o'zini tuta bilishlik, tashabbuskorlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi. O'yin bolalarda ijtimoiy axloqni, ularning hayotga, bir-biriga bo'lgan munosabatni shakllantiruvchi maktab vazifasini bajaradi. Tarbiyachi - pedagog bolalarning o'yiniga raxbarlik



qilayotib, ularni jamoa orqali ham tarbiyalab boradi. O‘yin jarayonida bolalar o‘z xohish-istiklarini jamoa xohishi bilan kelishib olishga, o‘yinda o‘rnatilgan qoidalarga rioya qilishga o‘rganadi.

O‘yin mактабгача yoshdagi bolalarni tarbiya qilish vositasidir. Tarbiyachi-pedagoglar tomonidan tashkil etilayotgan o‘yin mashg‘ulotlari orqali tarbiya jarayonlari olib boriladi. Qoidalı o‘yin jarayonlarida bolalarda irodaviy sifatlar, jamoa bilan ishlash hamda kommunikativ muloqot ko‘nikmalari shakllantiriladi. Bolalar yoshi ulg‘ayib borishi bilan o‘yin turlarini, undagi rollarni ham o‘zlari tanlay boshlaydilar. Rus psixologi A.Usova tadqiqotlarida ham bolalarning o‘yin faoliyatlarida bolalarning yosh xususiyatlarini ham inobatga olgan. Tarbiyachining vazifasi bolalarni u yoki bu o‘yin bilan uzoqroq o‘ynashga o‘rgatishdir. Uchinchi bosqichda o‘ynovchi bolalar guruhi birbiriga do‘stona munosabat va o‘zaro yoqtirish orqali birlashadilar. Birga o‘ynovchilar soni ko‘p bo‘lmasa-da, bolalar qiziqib o‘ynaydilar. Bu davrga kelib bir-birlariga baho berish umumiyligi talabi yuzaga keladi. Bu bosqichda tarbiyachi bolalarning o‘yinda birlashishlarining axloqiy asosini yuzaga keltirishi, ularda o‘zaro yordam, o‘rtoqlik, do‘slik munosabatlarini shakllantirishi lozim. Bolalar bog`chasida bolalarning uyushgan, qiziqarli va mazmunli hayotini ta’minlash uchun yosh guruhlarida rangbarang o‘yinlardan foydalanish zarur. Ijodiy o‘yinlar qoidalarining ichki, yashirin tabiatini bolaga harakat qilishi uchun katta erkinlik yaratadi; uning o‘ynayotgan jamoa oldidagi vazifasi tayyor qoidalı o‘yinlar mazmuniga nisbatan noaniqroq bo‘ladi. Bu o‘ynovchiga suyujetni osonlik bilan o‘zgartirish, qo‘srimcha rollar kiritish imkonini beradi. Ijodiy o‘yinlar bolalarda katta qiziqish uyg‘otadi va ularga ulkan ta’sir ko‘rsatadi, biroq bolalar hayotini tashkil qilishda faqat shu o‘yinlardan foydalanish xato bo‘lur edi. Bolalarning qoidalı o‘yinlarni egallashlari katta tashkiliy ahamiyatga ega. Qoidalari harakatlarning muayyan normalarini so‘ng esa bolalarning bir-biriga bo‘lgan munosabatini belgilaydi, bolaga o‘zini va o‘zi bilan birga o‘ynayotganlarni nazorat qilish imkonini beradi. Qoidalami bajarishdagi mustaqillik o‘yinda bolalarni maqsadga muvofiq tarbiyalash jarayonida shakllantiriladi. Bola o‘ynayotganda bolalar jamoasi bilan muayyan munosabatda bo‘ladi.

O‘yining ijtimoiy ta’siri, u uyg‘otadigan hislar unda tarkib topadigan munosabatlarda mujassamlashgan bo‘ladi. O‘yin davomida qoidalarning to‘g‘ri bajarilishi “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri”, “o‘yin qoidasi buzildi”, degan baholar bilan belgilanadi. Bolalar o‘yin vaqtida o‘z-o‘zini nazorat qilishni o‘rganib boradi. Albatta, har bir o‘yin so‘ngida natija tarbiyachi tomonidan muhokama qilinishi, unda qo‘yilgan maqsad, qoida va erishilgan natijalarga e’tibor qaratilishi kerak. O‘yin so‘ngida qatnashchilarni rag‘batlantirish, faol ishtirokchilarni maqtash – kelgusi o‘yinlarning



samarali o'tishini ta'minlaydi. Yuqorida aytib o'tilgan barcha turdag'i qoidali o'yinlar mazmuniga ko'ra o'z qoidalariga ega bo'ladi. Ular quyidagi xususiyatlarga ega: o'yin harakatlari orqali amalga oshiriladigan o'yin vazifasining mavjudligi, o'ynovchilarning harakat va munosabatlari qoidalar bilan yo'lga solib turilishi, o'yinda qoida va tayyor mazmunning mavjudligi, o'yinning ta'lim-tarbiyaviy mazmuni o'yin harakatlari vaqoidalarida mujassam bo'lib, ular bolalar uchun mustaqil vazifa sifatida namoyon bo'lmaydi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, o'yinning ijtimoiy voqeasi ekanligini, o'yinda tevarak-atrofdagi borliq aks ettirilishini ilg'or olim va pedagoglar o'zlarining kuzatish va ilmiy tadqiqotlari orqali isbotlab berdilar. O'yin mustaqil faoliyat bo'lib, bu jarayonda bolalar o'z tengdoshlari bilan aloqa qilishga kirishadilar. Ularni umumiyligi maqsad, unga erishishdagi umumiyligi kechilmalar birlashtiradi. Shuning uchun o'yin do'stona munosabatlarni tarbiyalashda, jamoa hayoti malakalarini, tashkilotchilik qobiliyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Buriboyevna A. M. Recommendations for Improving the Quality of Preschool Education through an Assessment System //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 5. – С. 297-304.
2. Астанақулова М. Б. ЭКОЛОГИК ЎЙИНЛАР ОРҚАЛИ МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИНГ КОГНИТИВ ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.10.10.026> Астанақулова Манзура Бўрибоевна, Мактабгача таълим назарияси кафедраси ўқитувчisi, Термиз давлат педагогика институти //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 10. – С. 220-224.
3. Buriboyevna A. M. Conditions For Planning The Educational Process In A Preschool Institution With Compensatory Groups //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 4. – С. 70-77.
4. Aliyevna J. M. Independent musical activity in preschool organizations //Journal of Ethics and Diversity in International Communication. – 2021. – T. 1. – №. 1. – С. 9-10.
5. Aliyevna J. M. The Social Activity of the Educator with the Family //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – T. 12. – С. 401-403.
6. Aliyevnv J. M. Pre-school education for children //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 12. – №. 4. – С. 129-134.



WEB OF SCIENTIST: INTERNATIONAL

SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL

ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 3, Mar., 2023

7. ALIYEVNA J. M., JUMANAZAROVICH B. J. THE ROLE OF ACTIVITY IN THE UPBRINGING AND DEVELOPMENT OF THE CHILD //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2021. – T. 1. – №. 2. – C. 126-129.
8. ALIEVNA J. M. Determining A Childs Readiness For School //JournalNX. – T. 6. – №. 11. – C. 401-406.
9. Toshpulatov F. U. GEOMETRICAL ANALYSIS OF THE ELEMENTS OF ANCIENT GREEK AND PLANT-LIKE (ISLAMIC) MOTIFS //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 8. – C. 461-468.
10. Toshpo'Latov F. U. et al. Bolalarni o 'yin texnologiyalari asosida kasb-hunarga qiziqishlarini shakllantirishda rivojlantiruvchi o 'yinlar //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 4. – C. 487-491.
11. Baratovna T. R. Developing Dialogic Speech of Pre-School Children on the Basis of a Variative Approach //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 10. – C. 272-275.
12. Baratovna T. R., Asal A. " IMPROVING THE METHODOLOGY OF CHILDREN'S DIALOGIC SPEECH DEVELOPMENT BASED ON A VARIATIONAL APPROACH"(IN THE CASE OF 5-6 YEAR OLD CHILDREN) //Conferencea. – 2023. – C. 45-51.
13. Toshpulatov F. U., Turopova R. B. Games that develop children's interest in the profession based on game technology //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 4. – C. 487-491.
14. qizi Matabgacha T. R. B. yoshdagi bolalarning badiiy estetik madaniyatini o'yinlar orqali shakllantirish EURASIAN JOURNAL OF LAW //FINANCE AND APPLIED SCIENCES <https://doi.org/10.5281/zenodo.6341593>. – T. 6341593.



Website:

<https://wos.academiascience.org>

573